



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



„ALPOMISH“ DOSTONINING JIYEMUROD JIROV VERSIYASI XUSUSIDA

Allamberganova Nodira Gulmurzayevna

*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
farzona_n@mail.ru*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17268118>

Annotatsiya: Mazkur maqolada „Alpomish“ dostonining qoraqalpoq versiyasi Jiyemurod jirov Bekmuhammedov varianti tahlilga tortiladi. Uning asosiy syujeti va motivlaridagi o‘ziga xosliklar hamda jirovning badihago‘ylik mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: versiya, variant, doston, syujet, motiv.

Аннотация: В статье анализируется каракалпакская версия эпоса «Алпомиш» – вариант Жиемурада Жирова Бекмухаммедова. Рассматриваются особенности его основного сюжета и мотивов, а также мастерство жирова как поэта.

Ключевые слова: версия, вариант, эпос, сюжет, мотив.

Annotation: This article analyzes the Karakalpak version of the epic poem „Alpomish“ – the variant of Jiyemurad Jirov Bekmukhammedov. The peculiarities of its main plot and motifs, as well as the skill of Jirov as a poet, are discussed.

Keywords: version, variant, epic, plot, motif.

Turkiy xalqlar millatlarga ajralib, o‘z tili, madaniyati va urf-odatlariga ega bo‘lgani kabi yagona manba asosida shakllangan asarlar ham keyinchalik, har bir xalqning sof milliy asarlariga aylanadi va qadrlanadi. Dostonning hech bir versiyasi bir-biridan ko‘chirilgan va biri ikkinchisining davomi bo‘la olmaydi. Chunki qachonlardir bir qavm, bir elat bo‘lib yashagan va keyingi taraqqiyot davrida alohida millat bo‘lib shakllangan turkiy xalqlar folklori o‘zi mansub millatning belgilarini o‘zida namoyon qiladi. Taniqli folklorshunos T.Mirzayev „Alpomish“ syujetining yaratilishi haqida shunday deydi: „Alpomish“ dostoni variantlarida saqlanib qolgan qadimgi motivlar va tushunchalar olis o‘tmish zamonlarda bobo syujet bo‘lganidan dalolat beradi [2.21].

„Alpomish“ syujetli epik asarlar o‘zbek, qoraqalpoq va qozoq xalqlarida doston shaklida boshqa turkiy xalqlarda esa, kichik nasriy asarlar shaklida yetib kelgan. Qoraqalpoq folklorshunosligida mazkur dostonning sakkiz varianti yozib olingan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi tomonidan nashr qilingan „Qoraqalpoq folklori“ ko‘p tomligidan o‘rin olgan mazkur variantlar ichida Jiyemurad jirov Bekmuhammedov varianti nashr jihatidan qadimiyligi bilan ajralib turadi.



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Jiyemurad jirov Bekmuhammedov XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan. Hozirgi To‘rtkul tumaniga qarashli Sho‘raxon qishlog‘ida 1836-yili dunyoga kelgan. Yoshligidan jirovchilik hunariga iqtidori bo‘lgan Jiyemurad o‘sha paytdagi mashhur baxshi Qazaqbay jirovga shogird tushadi. Buxoro, Samarqand, Surxon atroflarida bo‘lib, o‘z iqtidorini namoyish etadi. Keyinchalik Sho‘raxonga qaytib Qoraqalpoq va Xorazamda dong‘i chiqqan jirovga aylanadi [1:37-38].

Jiyemurad jirov Bekmuhammedov tilidan 1896-yilda yozib olinib, 1901-yilda A.Divaev tomonidan Toshkentda bosib chiqarilgan ilk nusxa dostonning keng jamoatchilikka va dunyo folklorshunosligida „Alpomish“ nomi bilan ataladigan turkiy xalqlarning milliy qahramonini tanish va tadqiq qilish imkonini yaratdi.

Dostonning Jiyemurod Jirov varianti Divaev tomonidan birinchi marta rus tiliga tarjima va izohlari bilan arab imlosida bosilib chiqqach, turkiy xalqlarning shu nomli epik asari folklorshunoslar uchun tadqiqot obyektiga aylangan. Masalan, professor Hasan Poksoyning Buyuk Britaniya ilm dargohlarida yaratgan dastlabki yirik asari „Alpomish“ O‘rta Osiyoning o‘zligi rus hukmi ostida“ deb nomlangan bo‘lib, mazkur tadqiqot aynan A.Divaev nashri asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari ingliz va turk tillarida kitob holida nashr etilgan (Paksoy H.B. Alpamysh: Central Asian Identity under Russian Rule. – Hartford, Connecticut First AACAR Edition, 1989; Paksoy H.B. ALPAMIŞ Rus Yönetimi Altında Orta Asya Kimliği. AACAR (Orta Asya Araştırmalarını Geliştirme Derneği) Kitap Dizisi. – HARTFORD: Connecticut Birinci AACAR basımı, 1989.)

Dostonning ilk nashri haqida o‘zbek folklorshunosligi asoschisi X.Zaripov munosabat bildirar ekan olimning folklorshunos va etnograf sifatidagi faoliyatini yuqori baholagani holda ayrim xatolari haqida ham gapirib o‘tadi: „A.Divaevning ilmiy faoliyatidagi ayrim nuqson va yetishmovchiliklar, hatto to‘g‘ridan to‘g‘ri xatolar ham ko‘zga tashlanishi tabiiy. Masalan „Alpomish“ dostonining to‘rtko‘llik Jiyemurad jirov Bekmuhammad o‘g‘lidan yozib olingan qoraqalpoq variantini yanglish ravishda qozoq dostoni deb o‘ylab, uni 1901-1922-yillarda ikki marta „Alpomish botir“ nomi bilan nashr etgan“ [3:48]. Ayrim yanglishishlarga qaramasdan A.Divaev juda katta ishni amalga oshirgan edi. Olimning mazkur nashrda berilgan qisqa kirish so‘z qoraqalpoq folklorshunosligida qahramonlik dostonlarini o‘rganishdagi ilk tadqiqoti edi deyish mumkin.

„Alpomish“ dostonining Jiyemurat jirov Bekmuhammedov varianti ham boshqa xalq dostonlari kabi nasr va nazmdan iborat. Doston voqealari Jiydeli-Baysun elida bo‘lib o‘tadi. Bu elda Boybo‘ri va Boysari ikki tengqur boy deb ta’riflanadi. Biroq ularning ikkisi ham befarzand edi. Dostonning boshqa variant va versiyalari



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



kabi farzandsizlik motivi bilan boshlangan syujet voqealari Jiyemurad jirovning badihago'ylik mahorati va obraz yaratish san'ati bilan uyg'unlashib, yana-da qiziqarli, voqealar bilan rivojlantiriladi. Farzandlar tug'ilmasidan ikki do'st bir-biri bilan quda bo'lishadi.

Dostonda farzandlarning ismini yetti qalandar qo'ygani aytiladi: „Baybo'ri boyning yolg'iz ulining oti mard Alpomish bo'lsin, qizining oti Qarlig'ash bo'lsin. Boysari boyning qizining oti Gulbarchun bo'lsin dedi. Gulbarchun Alpomishning jufti bo'lsin, - dedi“ [4:733]. Farzandlarga ism qo'yilishi va ularning yetti qalandar tomonidan bir-biriga atashtirilishi, mazkur versiyaning o'ziga xosliklaridan biri sifatida qarash mumkin. Yetti qalandar Alpomishni hamisha qo'llab kelishi, hatto, Alpomish nomidan poygada qatnashayotgan Qorajon yordam so'raganda ham unga yordam berish voqealari Alpomishning hamisha pirlar ko'magida ekanini anglash imkonini beradi.

Jiyemurod jirov Boysarining qalmoq yurtiga ko'chish voqeasi sababini ko'pkari voqeasi bilan bog'laydi. Ko'pkarida uloqqa talashib, „shayton ishi bo'ldi. Ikki quda bir biriga qamchi soldi“. Buning sabababini ulsizlik deb bilgan Boysari qudasidan xafa bo'lib, „Bu yurtlardan boshimni olib ketayin, Boybo'riga qizimni bermayin, bir solim tuzimni ham bermayin, Bul yolg'onchi dunyoda Boyborining yuzin ko'rmayin“, - deb olti oy qirq kunlik yo'l – Toychixonning yurtiga qalmoq muzofotiga ko'chishga qaror qiladi. Xotining qarshiligiga qaramasdan Gulbarchinni qora nor tuyaga mindirib yo'lga otlanadi.

Boysari qalmoq yurtiga ko'chib borganda Barchin yetti yoshda edi. Oradan yetti yil o'tgach, Gulbarchin o'n to'rt yoshga yetganda voqealar keskin rivojlantiriladi. Barchinning tarifi qalmoqlar yurtida ovoza bo'lgach, unga Toychixon ham, qalmoqlarning pahlavoni Qorajon ham sovchi jo'natadi. Yuksak aql-idrok sohibasi bo'lgan Barchin mazkur murakkab vaziyatni osonlashtirish va eng muhimi Alpomishning kelishiga umid qilib, qalmoqlardan olti oyga muhlat so'raydi va poygada oti o'zib kelganga tegaman, „boshimni bayroqqa qo'yaman“ deb shart qo'yadi.

Baxshi voqealar rivojini ikkinchi sahnaga olib o'tadi. Bunda qalmoqqa ketgan yorining izidan yo'lga otlangan Alpomish bilan bog'liq voqealar bayon qilinadi. Qultoydan ot so'rab borgan Alpomishga bobosi uni o'zi tutib olishi kerakligini aytadi. Dostonning boshqa variantlarida ko'zga tashlanavermaydigan yana bir holat shuki, bunda ot obrazi nihoyatda ustalik bilan tasvirlanadi. Hatto Boychibor odamga o'xshab fikrlaydi: „...yo meni bir er minar, yo shamol minar, qaysi bahodir meni



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



minsa, quyrug‘imdan tortib turg‘izgan kishi minar. Boychibor ot shu so‘zni ko‘nglina ma’qul qilib yurar edi“ [4:737].

Alpomish qalmoq sari Boychiborda yo‘lga chiqqach, baxshi ustalik bilan voqealar rivojini qalmoq eliga olib o‘tadi. Alpomish kelayotganda ot dupurini oldindan sezgan Qorajon „Yo qirda ming qo‘l kelatur yo ming qo‘lg‘a tatiyturg‘an er kelayatur“, deb o‘ylaydi va sahroga qarab yo‘l oladi. Qorajon bul dubirni ko‘ra olmadi, oldi tuman, orti qorong‘i edi. Hatto Qorajonning oti Qara ot ham bir narsadan hadiksiraganday bezovtalanadi. Jirov quyidagi so‘zlari orqali otning emas, ot orqali Alpomishning siyratini tasvirlaydi.

Beklar qurg‘an shatir ma?

Aldingda jolbars jatir ma?

Kelgenler bizden batir ma

Ne ko‘rding, qara at ne ko‘rding?

Alpomishning shotirligi, yo‘lbarsga qiyoslanishi va Qorajondan botirligi uni ko‘rmagan obrazlar orqali bayon qilinadi. Bu jirovning so‘z san‘atini puxta egallagani va badihago‘ylik mahorati yuksakligidan darak beradi. Jirov voqealar rivojini xuddi yozma epik asarlardagi kabi goh, Jiydali-Boysunga, goh qalmoqlar yurtiga olib o‘tadi. Har bir voqeada Alpomishning botirligi, mardligi yuqori pardalarda kuylanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erejepov A. Qorqit ata apsanasi qaraqalpaq jirawshiliq oneri. – Nokis: Bilim, 2024.
2. Мирзаев Т. „Алпомиш“ достони, унинг версия ва вариантлари// „Алпомиш“ – ўзбек халк қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999.
3. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. – Тошкент: Shams, 2013.
4. Қарақалпақ фольклоры. 100 томлық. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2007.1-8-том.